

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHEKNT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
YDX : 330.3;336 (575.1)

Isomov Ilhomjon Odiljon o‘g‘li

**Mavzu: Xalqaro investorlarining O‘zbekiston kapital bozoriga kirish
istiqbollari tahlili**

70410402 — “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori”

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar: prof., Xudoyqulov.X.X

Toshkent – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

“ Moliya ”

7 -sonli bayonnoma “ 25 ” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri


Xudoyqulov.X.X.


imzo

15.05.2023
sana

Ilmiy rahbar:

Xudoyqulov.X.X.


imzo

15.05.2023
sana

Talaba:

Isomov.I.O


imzo

25.05.2023
sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “ 15 ” may

№ MKF-01/3 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Ushbu dissertatsiyada xalqaro investorlarining O'zbekiston kapital bozoriga kirish istiqbollari tahlili bilan bog'liq muammolar tahlilining mazmun-mohiyati borasida fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

Mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Moliyaviy globallashtirish sharoitida kapital bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning yechimiga erishish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida kapital bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg'u berilmoqda hamda uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda. Jahon miqyosida rivojlangan mamlakatlarda "qimmatli qog'ozlar bozori aylanmasi so'nggi yillarda YaIM hajmiga nisbatan 100-200 foizni tashkil etgan holda, 2020 yildan keyin esa 300 foizgacha yetishi bashorat qilinmoqda". Ammo, yirik kompaniyalarning aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, kapital bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytirish, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investorlar, soliq yuki, kapital, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, likvidlik.

ABSTRACT

In this dissertation, opinions are advanced about the content and essence of the analysis of problems related to the expansion of the scope of attracting foreign investors to the national capital market. In order to create the most favorable investment environment for attracting direct investments in the country, liberalizing the economy, reforming public administration, limiting interference in the activities of business entities, reducing and simplifying licensing and permitting procedures, goods Wide-scale measures were taken to ensure free access to (works and services), as well as to create the necessary infrastructure in the regions. In the context of financial globalization, scientific research is being conducted to achieve solutions to issues aimed at the international development of the capital market, effective use of investments. Based on the results of the research, the development of national and international systems of the capital market is emphasized and continuously improved. In globally developed countries, "stock market turnover has been 100-200 percent of GDP in recent years, and it is predicted to reach 300 percent after 2020." However, the high share of the state in the share capital structure of large companies, the improvement of attracting investment through the capital market, increasing the liquidity of financial instruments, expanding the attraction of financial resources by ensuring their integration into the world capital market, conducting scientific research aimed at the development of the secondary market of securities is relevant. **Key words:** IPO, price, share, capital, stock market, securities, financial market, joint stock company.

Key words: investment, foreign investors, tax burden, capital, capital market, securities, liquidity.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro`yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro`yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
I BOB. KIRISH.....	10
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish.....	16
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	18
2.3 Mavzuga oid mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	22
III BOB. METODOLOGIYA.....	28
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	28
3.3 Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar.....	29
3.4 Tadqiqotni o`tkazish uchun zarur sharoitlar.....	29
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	29
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	29
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	31
4.1. Xorijiy investorlarni milliy kapital bozoriga jalb qilish ko`lamini kengaytirishning nazariy asoslari.....	31
4.2. Xorijiy investorlarni milliy kapital bozoriga jalb qilish ko`lamini kengaytirishning holati tahlili.....	43

4.3. Xorijiy investorlarni milliy kapital bozoriga jalb qilish ko'lamini kengaytirishning asosiy yo'nalishlari.....	59
V BOB. XULOSA.....	75
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	75
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	77
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	79

I BOB. KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq siyosati va bojxona-tarif jihatdan tartibga solish islohotlari jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, investorlar bilan ishlashda, ayniqsa, joylarda, investorlarning tashabbuslari barcha darajadagi hokimliklar tomonidan lozim darajada qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchning mustahkamlanishiga to'sqinlik qilmogda.

Qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini jamlash va uni investitsiya jarayonlariga yo'naltirishning muhim vositasidir. Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligatsiyalari kapital bozoriga qayta chiqarildi. Lekin qimmatli qog'ozlar chiqarib, ularni kapital bozorida sotish mexanizmidan samarali foydalanilmayapti.

Kapital bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so'm bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko'rsatkich Malayziyada 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil yetadi(Qaror 2017). O'zbekistonda joriy yilda chiqarilgan davlat obligatsiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Kapital bozori professional ishtirokchilari soni